

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI**

KASBIY TA'LIM AGENTLIGI

KASBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI



«SADIQLAYMAN»

kasbiy ta'limni rivojlantirish

Respublika direktori

X. Kadirov

2026 yil

“TA'LIMDA BOSHQARUV”

kafedrası

PSIXOLOGIK TRENING ASOSLARI

fani bo'yicha

ISHCHI O'QUV DASTURI

Ta'lim turi: Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash
Tinglovchilar toifasi Nomutaxassis oliy ma'lumotli shaxslar

TOSHKENT

Mazkur ishchi o‘quv dastur Nomutaxassis oliy ma’lumotli shaxslar bo‘yicha kasbiy qayta tayyorlash kursi o‘quv rejasi va namunaviy o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

N.A.Roziqova

Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti,
“Ta’limda boshqaruv” kafedrası dotsenti,
P.f.f.d. (PhD)

Taqrizchilar:

M.Dadaxodjayeva

Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti,
“Ta’limda boshqaruv” kafedrası dotsenti,
Psixologiya fanlari nomzodi

U.B.Mamanazarov

Oriental Universiteti “Uzluksiz ta’lim
pedagogikasi” kafedrası katta
o‘qituvchisi, Psixologiya fanlari falsafa
doktori (PhD)

Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti Ilmiy-pedagogik kengashida ma’qullangan.
202__yil ____-sonli bayonnoma.

I. TUSHUNTIRISH XATI

Bugungi kunda shaxsning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi, jamoada samarali muloqot o'rnatishi, ijtimoiy faolligi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi ko'p jihatdan psixologik treninglardan samarali foydalanish bilan bog'liq. Ta'lim, boshqaruv, tashkilotlar, maslahat va psixologik xizmat sohalarida trening texnologiyalari keng qo'llanilayotgani ushbu fanni o'rganishning dolzarbligini belgilaydi. Ayniqsa, inson resurslarini rivojlantirish, kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish, shaxsiy o'sish va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini takomillashtirishda psixologik treninglar muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 23 iyulda "Aholiga psixologik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi O'RQ-989-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrda "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrda "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda "Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-190-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-316-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyulda "O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 577-son Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevralda "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 106-son Qarori hamda Nomutaxassis oliy ma'lumotli shaxslar bo'yicha kasbiy qayta tayyorlash kursining namunaviy o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Mazkur fan tinglovchilarda psixologik treninglarni loyihalash, tashkil etish va o'tkazish bo'yicha nazariy bilimlar hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Fan doirasida trening tushunchasi, uning turlari, maqsad va vazifalari, trening guruhining shakllanish bosqichlari, guruh dinamikasi qonuniyatlari va trener faoliyatining asosiy jihatlari o'rganiladi.

Shuningdek, tinglovchilar trening dasturini ishlab chiqish, mashg'ulotlarni rejalashtirish, interaktiv metodlar, mashqlar, rolli o'yinlar, muhokama va refleksiya usullaridan samarali foydalanish bo'yicha bilim va malakaga ega bo'ladilar. Fan jarayonida shaxsiy va kasbiy rivojlanishga qaratilgan treninglarni tashkil etish, ishtirokchilar bilan ishlash, trening jarayonini boshqarish hamda natijalarni

baholash va monitoring qilish masalalari ham qamrab olinadi.

Fanni o'zlashtirish natijasida tinglovchilar psixologik treninglarni mustaqil ishlab chiqish, tashkil etish, o'tkazish va uning samaradorligini tahlil qilish bo'yicha kasbiy kompetensiyalarni egallaydilar. Nazariy bilimlar amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bilan uyg'unlashtirilgan holda o'qitilib, tinglovchilarning kasbiy faoliyatda zamonaviy trening texnologiyalarini samarali qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ushbu o'quv fani o'quv yuklamasi 48 soat bo'lib, shundan:

Jami auditoriya o'quv yuklamasi	- 48 soat
Jumladan: Nazariy mashg'ulotlar	- 12 soat
Amaliy mashg'ulotlar	- 24 soat
Laboratoriya mashg'uloti	- 12 soat

II. FANNING NOMI VA MAQSADI

2.1. Fan nomi: Psixologik trening asoslari.

2.2. Fan maqsadi: Tinglovchilarda psixokorreksiya nazariyasi va amaliyoti bo'yicha zamonaviy bilimlarni shakllantirish, shaxs rivojlanishidagi psixologik muammolarni aniqlash, tahlil qilish hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan psixokorreksion metod va texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Shuningdek, tinglovchilarda individual va guruh psixokorreksion ishlarni tashkil etish, psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqish, mashg'ulotlarni rejalashtirish va samaradorlikni baholash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish.

2.3. Tinglovchilar ushbu fanni o'rganish natijasida milliy malaka tizimiga taalluqli quyidagi bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladilar:

Bilim	Ko'nikma	Kompetensiya
Psixokorreksiya fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va asosiy tamoyillari.	Psixologik muammolarni aniqlash va tahlil qilish.	Psixokorreksion dasturlarni mustaqil ishlab chiqish.
Psixokorreksiyaning nazariy asoslari va rivojlanish bosqichlari.	Individual va guruh psixokorreksion mashg'ulotlarni tashkil etish.	Turli yosh va ijtimoiy guruhlar bilan psixokorreksion ish olib borish.
Individual va guruh psixokorreksiya metodlari.	Psixokorreksion trening mashqlarini tanlash va qo'llash.	Psixokorreksion mashg'ulotlarni samarali rejalashtirish va o'tkazish.
Emotsional buzilishlar, xulq-atvor og'ishlari, kommunikativ va moslashuv muammolarini korreksiya qilish usullari.	Art-terapiya, relaksatsiya va stressni boshqarish texnikalaridan foydalanish.	Psixokorreksion faoliyat bo'yicha hujjatlarni yuritish va hisobot tayyorlash.
Psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqish, rejalashtirish va monitoring qilish asoslari.	Psixokorreksion jarayon natijalarini baholash va tahlil qilish.	Psixokorreksion ish samaradorligini monitoring qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

2.4. Fan bo'yicha soatlar taqsimoti:

№	Mavzular	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat					Mustaqil ta'lim
		Hammasi	Jami	Auditoriyalardagi o'quv yuklamasi			
				Nazariy	Amaliy	Laboratoriya	
1	Trening tushunchasi, maqsadi va vazifalari	2	2	2			
2	Psixologik treninglarning turlari va qo'llanilish sohalari	2	2	2			
3	Trening guruhini shakllantirish bosqichlari	2	2	2			
4	Trening guruhini shakllantirish va tanishuv mashqlarini o'tkazish	2	2		2		
5	Trening jarayoni qonuniyatlari	2	2	2			
6	Trenerning kasbiy kompetensiyalari va roli	4	4		4		
7	Trening dasturini ishlab chiqish bosqichlari	4	4	2	2		
8	Trening mashg'ulotini rejalashtirish	4	4	2		2	
9	Interaktiv metodlardan foydalanish	4	4		4		
10	Treningda mashqlar va rolli o'yinlar	4	4		4		
11	Psixologik treninglarda enerjdjayer va faollashtiruvchi mashqlarni qo'llash	2	2		2		
12	Muhokama va refleksiya usullari	6	6		2	4	
13	Trening jarayonini yakunlash mashqlari	2	2		2		
14	Trening samaradorligini baholash	4	4		2	2	
15	Natijalar monitoringi va tahlil qilish	4	4			4	
Jami:		48	48	12	24	12	

III. FAN BIRLIGINING MAZMUNI

3.1. Nazariy mashg'ulotlar mazmuni

1 mavzu: Trening tushunchasi, maqsadi va vazifalari. Trening tushunchasining mazmun-mohiyati, uning psixologik ta'lim va rivojlantiruvchi faoliyatdagi o'rni. Treningning shaxsiy va kasbiy rivojlanishdagi ahamiyati, insonda muayyan ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan

maxsus o'quv shakli. Treningning asosiy maqsadi, ishtirokchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, muloqot madaniyatini rivojlantirish, shaxsiy salohiyatni ochish va muayyan muammolarni hal etishga ko'maklashish. Treningning vazifalari, bilim berish, ko'nikma hosil qilish, tajriba almashish, refleksiyaning rivojlantirish va ijtimoiy faollikni oshirish masalalari yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

2 mavzu: Psixologik treninglarning turlari va qo'llanilish sohalari. Psixologik treninglarning asosiy turlari: shaxsiy o'sish treningi, kommunikativ trening, liderlik treningi, stressni boshqarish treningi, konfliktlarni hal etish treningi va kasbiy rivojlantiruvchi treninglar. Har bir trening turining maqsadi, vazifasi va o'tkazilish xususiyatlari. Psixologik treninglarning ta'lim muassasalari, tashkilotlar, tibbiyot, ijtimoiy xizmat, biznes va maslahat markazlarida qo'llanilishi. Zamonaviy sharoitda onlayn va oflayn treninglarni tashkil etish imkoniyatlari yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

3 mavzu: Trening guruhini shakllantirish bosqichlari. Trening guruhini tashkil etishning bosqichlari, ishtirokchilarni tanlash va guruh bilan ishlash tamoyillari. Guruhning shakllanish bosqichlari, tanishuv, moslashuv, faol hamkorlik, barqaror ish va yakun bosqichlari. Ishtirokchilarning yosh, kasbiy tajriba, maqsad va ehtiyojlarini hisobga olgan holda guruh tuzish usullari. Guruh ichida ishonch muhitini yaratish, qoidalar belgilash va faol ishtirokni ta'minlash shartlari yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

4 mavzu: Trening jarayoni qonuniyatlari. Trening jarayonida kuzatiladigan asosiy psixologik va pedagogik qonuniyatlari. Guruh dinamikasi, ishtirokchilarning faollik darajasi, o'zaro ta'sir, refleksiya va emotsional muhitning trening samaradorligiga ta'siri. Trening jarayonida yuzaga keladigan qarshilik, passivlik, liderlik, guruh bosimi kabi holatlar nazariy jihatdan yoritish. Trening jarayonini boshqarishdagi roli va samarali muhit yaratish shartlari yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

5 mavzu: Trening dasturini ishlab chiqish bosqichlari. Psixologik trening dasturini ishlab chiqishning asosiy bosqichlari. Ehtiyojlarni tahlil qilish, maqsad va vazifalarni belgilash, ishtirokchilar xususiyatlarini hisobga olish bosqichlari. Keyin mashg'ulot mazmunini tanlash, usul va mashqlarni joylashtirish, vaqt taqsimoti va natijani baholash mezonlarini belgilash masalalari. Turli yo'nalishdagi trening dasturlarini tuzishdagi umumiy va maxsus yondashuvlar yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

6 mavzu: Trening mashg'ulotini rejalashtirish. Alohida trening mashg'ulotini rejalashtirish tamoyillari va tuzilishi. Mashg'ulotning kirish qismi, asosiy faoliyat bosqichi, amaliy mashqlar, muhokama va refleksiya bosqichlarining vazifalarini yoritish. Vaqtni taqsimlash, mashqlarni tanlash, qatnashchilar faolligini oshirish va mashg'ulot maqsadiga erishish uchun metodlarni to'g'ri joylashtirish masalalari. Trening rejasini tuzishda moslashuvchanlik va ishtirokchilar ehtiyojlarini inobatga olish ahamiyati yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

3.2. Amliy mashg'ulotlar mazmuni

4 mavzu: Trening guruhini shakllantirish va tanishuv mashqlarini o'tkazish. Trening guruhini tashkil etish jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirish. Ishtirokchilarni tanishtirish, ishonch muhitini shakllantirish va guruh a'zolari o'rtasida o'zaro muloqotni faollashtirishga qaratilgan tanishuv mashqlari o'tkazish. "Ismi va sifat", "Qor to'pi", "Men haqimda uch fakt" kabi mashqlar amalda sinab ko'rish. Tanishuv jarayonida ishtirokchilarning faolligini oshirish, psixologik to'siqlarni yumshatish va treningga ijobiy motivatsiya yaratish usullari muhokama qilish. Guruh qoidalarini belgilash va ularni ishtirokchilar bilan kelishib olish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

6 mavzu: Trening kasbiy kompetensiyalari va roli. Tinglovchilar treningning faoliyatini modellashtirish orqali uning asosiy vazifalari. Treningning nutq madaniyati, guruhni boshqarish, ishtirokchilarni faollashtirish, bahsni boshqarish va psixologik muhit yaratish. Turli vaziyatlarda treningning munosabat bildirishi, muammoli ishtirokchilar bilan ishlash va guruh dinamikasini boshqarish bo'yicha rolli o'yinlar tashkil etish. Tinglovchilar o'zlarining trenerlik qobiliyatlarini baholash va rivojlantirish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

7 mavzu: Trening dasturini ishlab chiqish bosqichlari. Muayyan mavzu bo'yicha trening dasturini mustaqil ishlab chiqish. Ehtiyojni aniqlash, maqsad va vazifalarni belgilash, mashqlarni tanlash va vaqt taqsimotini belgilash. Guruhlarda ishlab chiqilgan dasturlar taqdim etish va muhokama qilish. Trening dasturining mantiqiy izchilligi va ishtirokchilarga mosligini baholash bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

9 mavzu: Interaktiv metodlardan foydalanish. Interfaol ta'lim usullarini amalda qo'llash. Har bir usulni o'zida o'tkazib ko'rish va qaysi holatlarda samarali ekanini tahlil qilish. Interaktiv metodlarni trening maqsadiga moslashtirish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

10 mavzu: Treningda mashqlar va rolli o'yinlar. Trening jarayonida qo'llaniladigan mashqlar va rolli o'yinlarni tayyorlash hamda o'tkazishni amaliy o'zlashtirish. Kommunikativ, emotsional, liderlik va muammo yechishga qaratilgan mashqlar. Rolli o'yinlar orqali ishtirokchilar turli ijtimoiy vaziyatlarda harakat qilish va muloqot strategiyalari. Mashqdan keyin tahlil va refleksiya amalga oshirish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

11 mavzu: Psixologik treninglarda enerdjayzer va faollashtiruvchi mashqlarni qo'llash. Diqqatni jamlash, charchoqni kamaytirish va faollikni oshirishga qaratilgan enerdjayzer mashqlari. "Atom-molekula", "Mevali salat", "Qo'l chaqish ritmi", "Tez qaror" kabi mashqlar. Har bir mashqning maqsadi, qachon qo'llash va ishtirokchilarga ta'siri bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

12 mavzu: Muhokama va refleksiya usullari. Treningdan keyin fikr almashish va ishtirokchilarning tajribasini anglashga qaratilgan muhokama usullari. "Aylana fikr", "Tugallanmagan gaplar", "Bir so'z bilan ifoda", "Eng muhim xulosa" kabi refleksiya usullari. Muhokamani boshqarish va har bir ishtirokchini jalb qilish usullarini bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

13 mavzu: Trening jarayonini yakunlash mashqlari. Treningni samarali yakunlashga qaratilgan mashqlar va texnikalar. Ishtirokchilarda ijobiy taassurot qoldirish, umumiy xulosa chiqarish va keyingi faoliyatga motivatsiya berish usullari. Yakunlovchi mashqlar, fikr almashish va ramziy topshiriqlar bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

14 mavzu: Trening samaradorligini baholash. Trening natijalarini baholash usullari. So'rovnomalar, kuzatuv, fikr-mulohaza yig'ish, test va refleksiya orqali trening samaradorligini aniqlash mashqlari. Baholash mezonlarini ishlab chiqish va o'tkazilgan mashg'ulot natijalarini tahlil qilish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

3.3. Laboratoriya mashg'ulotlar mazmuni

8 mavzu: Trening mashg'ulotini rejalashtirish. Muayyan mavzu bo'yicha trening mashg'ulotining to'liq rejasini ishlab chiqish. Mashg'ulot maqsadi, vazifalari, ishtirokchilar tarkibi, vaqt taqsimoti va qo'llaniladigan usullar. Kirish qismi, asosiy faoliyat, amaliy mashqlar, muhokama va yakun bosqichlari bo'yicha yozma ssenariy tuzish. Turli mavzularga mos mashqlar va interfaol metodlarni tanlab, rejaga joylashtirish. Tayyorlangan rejalar tahlil qilinib, ularning mantiqiy izchilligi, vaqt samaradorligi va maqsadga muvofiqligi bo'yicha xulosalar chiqariladi.

12 mavzu: Muhokama va refleksiya usullari. Treningdan keyingi muhokama va refleksiya jarayonini tashkil etish usullari. Turli trening mashg'ulotlaridan so'ng fikr-mulohaza yig'ish, ishtirokchilar taassurotini aniqlash va umumlashtirish bo'yicha yozma hamda og'zaki shakllarni qo'llash. Refleksiya varaqalari, savolnomalar, kuzatuv jadvallari va baholash shakllari. Muhokama natijalarini tahlil qilish, ishtirokchilarning faollik darajasi va emotsional holati bo'yicha ma'lumotlarni tizimlashtirish ko'nikmalari shakllantiriladi.

14 mavzu: Trening samaradorligini baholash. Trening samaradorligini aniqlash uchun baholash vositalarini ishlab chiqish. Oldindan va keyingi baholash shakllari, testlar, anketa, fikr-mulohaza varaqalari tayyorlash. Namunaviy trening natijalari bo'yicha ma'lumotlar to'plab, ularni tahlil qilish. Samaradorlik mezonlari, ishtirokchilarning bilim darajasi, amaliy ko'nikmalar, faollik, qoniqish va trening maqsadlariga erishish darajasi. Olingan natijalar asosida xulosa va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

15 mavzu: Natijalar monitoringi va tahlil qilish. Trening natijalarini kuzatish va monitoring qilish jarayoni. Ma'lumotlarni yig'ish, jadvallarga kiritish, dinamikani taqqoslash va tahlil qilish. Monitoring varaqalari, hisobot shakllari va tahliliy jadvallar tuzish. Qatnashchilarning o'zgarishlari, treningdan keyingi qo'llanish darajasi va uzoq muddatli ta'sirini baholash usullari. Mashg'ulot yakunida yig'ilgan ma'lumotlar asosida analitik hisobot tayyorlash ko'nikmalari shakllantiriladi.

IV. NAZORAT SAVOLLARI

1. Psixologik trening tushunchasi nima?
2. Psixologik treningning asosiy maqsadi nimadan iborat?
3. Psixologik treningning vazifalari qaysilar?
4. Psixologik treningning ta'lim jarayonidagi ahamiyati nimada?
5. Psixologik treninglarning qanday turlari mavjud?
6. Shaxsiy rivojlantiruvchi treninglar qanday xususiyatlarga ega?
7. Kommunikativ treninglarning maqsadi nimadan iborat?
8. Liderlik treninglari qanday vazifalarni bajaradi?
9. Psixologik treninglarning qo'llanilish sohalari qaysilar?
10. Trening guruhini shakllantirish bosqichlari qanday?
11. Trening ishtirokchilarini tanlashda qanday mezonlar hisobga olinadi?
12. Trening jarayonida guruh dinamikasi qanday namoyon bo'ladi?
13. Trening jarayonining asosiy qonuniyatlari nimalardan iborat?
14. Treningning kasbiy kompetensiyalari nimalardan iborat?
15. Treningning trening jarayonidagi roli qanday?
16. Trening dasturini ishlab chiqish bosqichlari qaysilar?
17. Trening mashg'ulotini rejalashtirishda nimalarga e'tibor qaratiladi?
18. Interaktiv metodlar deganda nima tushuniladi?
19. Rolli o'yinlar treningda qanday ahamiyatga ega?
20. Psixologik mashqlarni tanlashda qanday mezonlarga amal qilinadi?
21. Enerdjayzer mashqlarining vazifasi nimada?
22. Faollashtiruvchi mashqlar qachon qo'llaniladi?
23. Muhokama usuli treningda qanday tashkil etiladi?
24. Refleksiya tushunchasi va uning ahamiyati nimada?
25. Trening jarayonini yakunlash usullari qaysilar?
26. Trening samaradorligini baholash qanday amalga oshiriladi?
27. Trening natijalarini monitoring qilish usullari qanday?
28. Psixologik treningda qatnashchilar faolligini oshirish usullari qaysilar?
29. Zamonaviy psixologik treninglarni tashkil etishda qanday innovatsion yondashuvlar qo'llaniladi?

V. O'QITISH VOSITALARI

1. Doska;
2. Flipchart qog'ozi;
3. Qog'oz A4 formatli yetarlicha;
4. Markerlar;
5. Tarqatma materiallar;
6. Multimediya to'plami (kompyuter, videoproektor, elektron doska, monitor).

VI. FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI

Me‘yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 23-iyulda “Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘RQ-989-son Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrda “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrda “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda “Kasbiy ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-190-son Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda “Kasbiy ta’lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-316-son Qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyulda “O‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 577-son Qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevralda “Professional ta’lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 106-son Qarori.

Asosiy adabiyotlar

1. Библиотека приключений тренинга и консалтинга. Управленческая культура организаций. -М.: “Класс”, 2004.
2. Оганесян Н.Т. Методы активного социально-психологического обучения: тренинги, дискуссии, игры. М.: “Ось-89”, 2001.
3. Парыгин Б.Д. Практикум по социально-психологическому тренингу. Екатеринбург, 2000.
4. Пугачев В.П. Тесты, деловые игры, тренинги в управлении персоналом: Учебник для студентов вузов. - М.: “Аспект Пресс”, 2000.
5. Селихов С. Технология социально-психологических тренингов. М.: “МПУ”, 2001.
6. Вачков И.В. Психология тренинговой работы: Содержательные, организационные и методические аспекты ведения тренинговой группы. М.: “Эксмо”, 2007.
7. Грецов А.Г. Тренинг общения для подростков. СПб.: “Питер”, 2005.
8. Евтихов О. В. Практика психологического тренинга. СПб.: “Речь”, 2004.
9. Жуков Ю.М. Коммуникативный тренинг. М.: “Гардарика”, 2004.

10. Мануэль Дж.Смит. Тренинг уверенности в себе. СПб.: “Речь”, 2002.
11. Алиева М., Трощикина Е. Тренинг развития жизненных целей. СПб: «Речь», 2002.
12. Адизова Г.М. Тренингнинг методик асослари. -Т.: “ТДПУ” 2002.
13. Эльконин Д.В. Психологический тренинг с подростками Академия, 2003.
14. Самоухина Н.В “Психогимнастика в тренинге” Финикс., 2002.

Internet saytlar

1. www.expert.psychology.ru
2. www.psycholo.all..ru
3. www.libraru.com
4. www.psy.piter.com
5. www.psychology.ru
6. www.lib.psychology.msu.ru